



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI  
BOSHQARISH AGENTLIGINING  
Q A R O R I**

2024-yil 16-aprel

76/10-1-qr

Toshkent sh.

**Davlat mulki obyektlarini bir davlat tashkilotidan boshqa davlat tashkilotiga  
operativ boshqaruv huquqi asosida beg‘araz berish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-fevraldagi PF–5666-son Farmonining 11-bandi, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-yanvardagi 23-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi to‘g‘risidagi Nizom hamda 2021-yil 8-iyundagi 355-son qaroriga muvofiq, davlat ko‘chmas mulki obyektidan samarali foydalanishni ta‘minlash maqsadida, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PQ–176-son qarorining 9-bandida Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o‘rinlarda – Ijtimoiy himoya milliy agentligi)ning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalarini hamda tuman(shahar)lardagi “Inson” ijtimoiy xizmat markazlarini joylashtirish bo‘yicha taklif kiritishi belgilanganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 20-fevral kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi 12-son bayoni qarorining 5-bandida bayonning 1-ilovasiga muvofiq keltirilgan obyektlarni “Inson” ijtimoiy xizmat markazlarini joylashtirish uchun ajratish masalasini hal etish topshirilganligi;

d) Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-sentabrdagi 03/1-1633-son topshirig‘i bilan tuman (shahar)lardagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari uchun tanlangan

bino va inshootlarni belgilangan tartibda Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boshqarmalari balansiga o'tkazilishini ta'minlash topshirilganligi;

e) Quyidagilarning:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2023-yil 28-avgustdagi 01-04/9-08/2190-son hamda 2024-yil 17-fevraldagi 01-04/9-02/489-son;

Sirdaryo viloyati hokimligining 2024-yil 23-martdagi 1/03-207-son xatlari bilan ilovaga muvofiq keltirilgan obyektlarni (keyingi o'rinlarda – Obyektlar) Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus va Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanlari "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarini joylashtirish uchun taklif etganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 11-martdagi 07/29-5521-son;

Adliya vazirligining 2024-yil 1-apreldagi 6/10-6/6545-son;

Sog'liqni saqlash vazirligining 2024-yil 5-apreldagi 01-17/7290-son;

Ijtimoiy himoya milliy agentligining 2024-yil 22-fevraldagi 04/20/720-son, 29-martdagi 04/20/1213-son hamda 9-apreldagi 04/20/1446-son xatlariga asosan obyektlarni Ijtimoiy himoya milliy agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi va Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmalariga operativ boshqaruv huquqi asosida beg'araz berish yuzasidan rozilik bildirilganligi;

f) Obyektlarni tuman (shahar)lardagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarini joylashtirish uchun ajratilishida obyekt(lar)ni saqlash xarajatlarining maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to'g'risida xulosa olish uchun Davaktiv agentligining 2024-yil 4-apreldagi 03/10-1-12/1328-son hamda 8-apreldagi 03/10-1-12/1394-son murojaatlari Iqtisodiyot va moliya vazirligiga yuborilganligi;

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyundagi 355-son qarori bilan tasdiqlangan Respublika mulki obyektlarini bir davlat tashkilotidan boshqa bir davlat tashkilotiga operativ boshqaruv huquqi asosida beg'araz berish tartibi to'g'risidagi nizomning 15-bandida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan xulosa belgilangan muddatda taqdim etilmasa, respublika mulki obyekt(lar)ini bir davlat tashkilotidan boshqa bir davlat tashkilotiga operativ boshqaruv huquqi asosida beg'araz berishning maqsadga muvofiqligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan deb hisoblanishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Obyektlar mazkur qaror ilovasiga muvofiq tegishli hududi hamda undagi asosiy vositalari bilan birgalikda, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarini joylashtirish uchun Ijtimoiy himoya milliy agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmalariga operativ boshqaruv huquqi asosida beg'araz o'tkazib berilsin.

3. Ijtimoiy himoya milliy agentligi Adliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda:

**besh kun muddatda**, Obyektlar bino-inshootlari hamda undagi asosiy vositalarini xatlovdan o'tkazib, ro'yxatining shakllantirilishini;

ushbu shakllantirilgan ro'yxatga asosan, **besh kun muddatda** bino-inshootlar hamda undagi asosiy vositalarini o'rnatilgan tartibda topshirilishi va qabul qilinishini ta'minlasin.

4. Davaktiv agentligining Sirdaryo viloyati hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmalari Obyektlarning bino-inshootlari hamda undagi asosiy vositalarining topshirilishi va qabul qilinishini tashkil etsin va natijasi bo'yicha Davaktiv agentligiga axborot kiritsin.

5. Topshirish-qabul qilish dalolatnomalari tasdiqlangandan va kadastr hujjatlari davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng, ushbu hujjatlarning nusxalari Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan Davaktiv agentligiga taqdim etiladi.

Belgilansinki, Obyektlardan boshqa maqsadlarda (ijaraga berish, sotish, buzish, boshqa tashkilotga berish va hokazo) foydalanish qat'iy Davaktiv agentligi bilan kelishilgan holda qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Ijro intizomi nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'limi ushbu qarorning nusxalarini Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Sirdaryo viloyati hokimligi, Davaktiv agentligining tegishli tarkibiy bo'linmalari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmalariga yuborilishini ta'minlasin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish direktor o'rinbosari A. Miraliyev zimmasiga yuklansin.

**Direktor**



**A. Ortikov**

**Ijtimoiy himoya milliy agentligining  
Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmalariga operativ  
boshqaruv huquqi asosida beg‘araz o‘tkazib berilayotgan bino-inshootlar  
RO‘YXATI\***

T/r	Bino-inshoot nomi	Hudud nomi	Balansda saqllovchi	Bino-inshootlar	
				Yer maydoni, (ga)	Bino-inshootlar umumiy maydoni, (kv.m)
1.	Nukus tumani Tibbiyot birlashmasining Buxgalteriya binosi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus tumani, “Oqmang‘it” ShFY	Nukus tumani tibbiyot birlashmasi	0,6	216,0
2.	Ma‘muriy binoning 1-qavati	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Ellikqal‘a tumani, “Bo‘ston” ShFY, Sh. Rashidov ko‘chasi, 5-uy	Ellikqal‘a tumani Moliya bo‘limi	-	508,3
3.	Sobiq FHDYO bo‘limi ma‘muriy binosi	Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumani, “Navro‘z” MFY, Mustaqillik ko‘chasi, 38-uy	Sirdaryo viloyati Adliya boshqarmasi	0,18	304,0

\*Mazkur ilova va kadastr hujjatlarida obyektlarning nomlanishi hamda bino va inshootlar egallagan maydoni ko‘rsatkichlari o‘rtasida tafovut bo‘lganda hamda kadastr hujjatini rasmiylashtirishda obyektlarning topshirish - qabul qilish dalolatnomasi asosida ushbu ko‘rsatkichlarga aniqlik kiritiladi.